



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

## 2026-YIL

iyun/6-son, I-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 2026-yil, may.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI VA UNING BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI .....	18
<b>Nazarov G'ayrat Xayrullayevich</b>	
YUKLARNI TASHISHDA ZARURIY TRANSPORT XUJJATLARI.....	22
<b>Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li</b>	
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY IMTIYOZ VA PREFERENSIYALARNI SAMARALI QO'LLASH YO'NALISHLARI.....	27
<b>Otamurodova Dildora Abdukrimovna</b>	
GLOBAL BEQARORLIK SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI .....	32
<b>Saidnazarova Odinabonu Saidolim qizi</b>	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ИССЛЕДОВАНИЙ В ОБЛАСТИ УЧЕТА И АУДИТА ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ.....	37
<b>Пулатова Мадина Бейсеновна</b>	
<b>Табаев Азамат Зарипбаевич</b>	
MAJBURIYATMI YOKI MAJBURIY RISK? MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR KONSEPTUAL ASOSLARINING IQTISODIY TABIATI VA ZAMONAVIY TALQINLARI.....	42
<b>Palvanov Xusniddin Bekimmatovich</b>	
ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ УЧЕТА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В СИСТЕМЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ.....	47
<b>Пу Кебин</b>	
TRANSPORT XIZMATLARI SIFATINI BARQARORLIK NUQTAYI NAZARIDAN O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	51
<b>Xodjaniyazov Elbek Sardorovich</b>	
VILOYAT SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI KO'P OMILLI EMPIRIK MODELLAR ASOSIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH (Qashqadaryo viloyati misolida) .....	57
<b>Avazova Nafisa Namazovna</b>	
SANOAT KORXONALARI SHOVQINI VA ATMOSFERA CHIQINDILARINING TURAR-JOY HUDUDLARI EKOLOGIYASIGA TA'SIRINI KAMAYTIRISH CHORALARI .....	61
<b>Saparova Shohida Abduvaliyevna</b>	
SANOAT SHOVQINI VA ATMOSFERA IFLOSLANISHINING SHAHAR TURAR JOY HUDUDLARI VA EKOLOGIYASIGA TASIRINI O'RGANISH.....	65
<b>Shaxyusupova Nilufar Erkin qizi</b>	
BARQAROR SHAHAR RIVOJLANISHIDA SANOAT OQOVA SUVLARINI BIOLOGIK TOZALASH TEXNOLOGIYALARINING ROLI.....	69
<b>Tursunova Aziza Asrorovna</b>	
SHAHAR EKOLOGIK MUHITIGA SANOAT KORXONALARINING TA'SIRINI BAHOLASH.....	75
<b>Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li</b>	
O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	78
<b>Xusanova Zulfiya Raxmatullayevna</b>	
KORXONALARDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	87
<b>No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi</b>	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	93
<b>Nasimov Ravshanjon Azimovich</b>	



# SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Nasimov Ravshanjon Azimovich  
Toshkent davlat iqtisodiyot  
universiteti mustaqil izlanuvchisi, PhD

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada soliq tizimida soliq risklarini baholash va boshqarishning uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, soliq to'lovchilarning faoliyatini riskka yo'naltirilgan yondashuv asosida tahlil qilish masalalari yoritilgan. Maqola doirasida soliq risklarini aniqlash mezonlari va ularni miqdoriy baholash modellari ko'rib chiqilgan hamda O'zbekiston soliq tizimida risklarni boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq tushumlari, tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

**Abstract:** This article examines the methodological foundations of tax risk assessment and management in the tax system. The issues of improving tax administration in the digital economy and analyzing taxpayers' activities based on a risk-oriented approach are discussed. The article considers the criteria for identifying tax risks and models for their quantitative assessment, and puts forward proposals to improve the effectiveness of risk management in the tax system of Uzbekistan.

**Keywords:** tax revenues, risk analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются методологические основы оценки и управления налоговыми рисками в налоговой системе. Обсуждаются вопросы совершенствования налогового администрирования в условиях цифровой экономики и анализа деятельности налогоплательщиков на основе риск-ориентированного подхода. В статье рассматриваются критерии выявления налоговых рисков и модели их количественной оценки, а также предлагаются меры по повышению эффективности управления рисками в налоговой системе Узбекистана.

**Ключевые слова:** налоговые поступления, анализ рисков, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, передовые информационно-коммуникационные технологии, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

## KIRISH

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotida kechayotgan global o'zgarishlar va davlat moliya tizimini raqamlashtirish jarayoni soliq ma'muriyatchiligi oldiga yangi talablarni qo'yimoqda. Soliq tizimining barqarorligi va budjet daromadlarining to'liqligi bevosita soliq risklarini to'g'ri baholash va ularni o'z vaqtida bartaraf etishga bog'liq. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan soliq islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri — bu soliq nazorati jarayoniga riskka yo'naltirilgan yondashuvni to'liq joriy etishdir. Soliq riskini baholash uslubiyati nafaqat davlatning moliyaviy yo'qotishlarini kamaytirish, balki halol soliq to'lovchilar uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga xizmat qiladi. Chunki mazkur tizim tekshiruvlarni kamaytirib, asosiy e'tiborni soliq to'lashdan bo'yin tovlash ehtimoli yuqori bo'lgan "intizomsiz" subyektlarga qaratish imkonini beradi. Biroq hozirgi kunda soliq risklarini aniqlashning matematik va statistik usullarini takomillashtirish, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish hamda xalqaro tajribani milliy qonunchilikka moslashtirish masalalari hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Ushbu maqola aynan mana shu uslubiy bo'shliqlarni o'rganish va sohani rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berishga qaratilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq to'lovchilar faoliyatini soliq nazoratini amalga oshirish masalalari iqtisodiy nazariya, moliya va soliq huquqi sohalarida keng o'rganilgan bo'lib, mazkur yo'nalishda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan qator ilmiy



tadqiqotlar olib borilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq nazoratining mohiyati, shakllari va usullariga nisbatan turli ilmiy yondashuvlar mavjud.

Xorijiy olimlardan J. Stiglits, R. Masgreyv va P. Samuelson soliq nazoratini davlat moliyaviy mexanizmining ajralmas qismi sifatida talqin qilib, uning asosiy vazifasi soliq majburiyatlarining to'liq va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning ishlarida soliq nazorati soliq siyosatining samaradorligini belgilab beruvchi muhim omil sifatida baholanadi.

Shuningdek, M. Olson, A. Smit va F. Shnayder tadqiqotlarida soliq nazorati va soliq to'lovchilarning xulq-atvori o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor qaratilgan. Ularning fikricha, samarali soliq nazorati soliqdan qochish holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi hamda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

MDH davlatlari olimlaridan A. G. Gryaznova, L. I. Goncharenko, I. A. Mayburov va T. F. Yutkina ishlarida soliq nazoratining nazariy-metodologik asoslari, uning shakl va usullari, shuningdek, soliq tekshiruvlarini tashkil etish masalalari chuqur yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda soliq nazorati davlat budjeti daromadlarini ta'minlashning asosiy vositalaridan biri sifatida qaraladi.

O'zbekistonlik olimlardan Q. Abdurahmonov, A. Vahobov, Sh. Mustafokuqulov, B. Toshmatov va boshqalarning ilmiy ishlarida milliy soliq tizimida soliq nazoratini takomillashtirish, soliq ma'muriyatchiligini kuchaytirish hamda soliq to'lovchilar bilan o'zaro munosabatlarning institutsional asoslari tahlil qilingan. Ayniqsa, ular soliq nazoratini raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlarini joriy etish hamda riskka asoslangan yondashuvlarni qo'llash masalalariga alohida e'tibor qaratganlar.

S. M. Olennikovning fikricha, soliqdan qochish va soliqlarni optimallashtirish soliq to'lovchining rejalashtirgan xatti-harakatlari hisoblanadi.

A. Makoveskiy, Ye. A. Zareskaya kabi olimlar soliqdan qochishning eng ko'p qonuniy tarqalgan usullaridan biri bo'lgan soliqlarni optimallashtirish tushunchasiga ham ta'rif berib o'tadi, ya'ni ularning ta'biricha, "Soliqlarni optimallashtirishda soliq to'lovchining maqsadli qonuniy harakatlari, shu jumladan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha imtiyozlardan to'liq foydalanish, soliq imtiyozlari va boshqa qonuniy imtiyozlar orqali soliq majburiyatlari miqdorini kamaytirishni tushunish odatiy holdir. Boshqacha aytganda, bu soliq va jinoyat qonunchiligi normalarini buzmaganda, qonuniy asoslarda soliq to'lovlari minimal darajaga tushiriladigan xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini tashkil etishdir", deydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, qiyosash, kuzatuv usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon amaliyotida anchadan buyon amalga oshirilib kelinayotgan soliq riskini baholash amaliyoti respublikamiz soliq tizimida ham qo'llanila boshlaganiga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, bu borada ma'lum darajada tajribalarga ega bo'lindi. Albatta, soliq riskini baholash uchun uni amalga oshirish uslubiyotini to'g'ri aniqlab olish muhim sanaladi. Bunda soliq xavfini baholash va soliq to'lovchilarni insofilik mezonlari asosida segmentlash tizimini joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi "Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5490-son Farmoni [1] hamda 2019-yil 10-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-son qarorida [2] respublikamiz soliq tizimida soliq xavfini baholash va soliq to'lovchilarni insofilik mezonlari asosida segmentlash tizimini joriy qilish vazifalari belgilab berilgan edi.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-sonli qaroriga [3] asosan Soliq qo'mitasi tomonidan soliq xavfini boshqarish tizimi ishlab chiqilgan. Soliq xavfini boshqarish jarayoni quyidagi 4 ta bosqichni o'z ichiga oladi:

- soliq xavfini aniqlash;
- soliq xavfini tahlil qilish;
- soliq xavfini baholash va eng salmog'i yuqorilarini aniqlash;
- soliq xavflarini bartaraf etish yuzasidan choralar ko'rish va jarayondagi kamchiliklarni tuzatish.

Ushbu jarayonlar bir-biriga bog'liq bo'lib, 1-rasmda keltirilgan ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Mazkur jarayonlarning har biri ma'lum vaqt davomida amalga oshirilib, bir jarayonni tugatib, boshqa bir jarayon boshlanishi lozim. Soliq xavfini boshqarish jarayoni modeli ma'lum bir maqsadlarga erishishni o'z oldiga ustuvor vazifa etib belgilaydi. Ushbu maqsadlar markaziy darajada, mahalliy darajada yoki funksional darajada aniqlanadi.



Maqsadlarga erishilganligini ko'rsatuvchi indikatorlar belgilab olinadi va ularning bajarilishi doimiy nazorat qilib boriladi. Odatda, markaziy darajada belgilangan muddatda aniq miqdordagi soliqlarni yig'ish maqsad qilib qo'yiladi (1-rasm).



1-rasm. Soliqlar xavfini boshqarish jarayoni modeli<sup>1</sup>

Soliqlar xavfini aniqlash xavflarni boshqarish jarayonining dastlabki bosqichi hisoblanib, ehtimoliy soliqlar xavflarini va ularning takrorlanish darajasini aniqlashdan iborat. Ushbu jarayonda potensial xavflar reyestri yaratiladi. Soliqlar xavfini tahlil qilish — bu yig'ilgan elektron axborotlarni inson bilimi va salohiyatini qo'llagan holda qayta ishlash jarayoni sanaladi. Ushbu jarayonda quyidagi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

ma'lum vaqt oralig'ida holatlarning takrorlanishi (soliqlar xavflari va xavfi mavjud soliqlar to'lovchilar soni); ehtimolligi (xavfning sodir bo'lish ehtimolligi qanchalik katta); ta'siri (xavfning sodir bo'lishi qanday oqibatlarga olib keladi).

Biroq nima sodir bo'lganligi, kim tomonidan sodir etilganligini aniqlashning o'zi yetarli emas. Soliqlar xavfini aniqlash jarayoni nima uchun sodir bo'ldi degan savolga javob qidiradi. Bunda soliqlar to'lovchining shunday xulq-atvorda o'zini namoyon qilishiga sabab bo'lgan omillar o'rganiladi. Bu esa baholash jarayonini to'g'ri amalga oshirishga hamda eng samarali ta'sir choralari qo'llashga yordam beradi.

Soliqlar xavfini baholash va eng salmog'i yuqorilarini aniqlash jarayoni soliqlar xavflarini muhimlilik darajasiga ko'ra matritsa asosida tabaqalarga ajratadi. Bunda soliqlar xavfining moliyaviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnik va atrof-muhitga oid ta'siri inobatga olinadi. Muhimlilik darajasiga ko'ra matritsani tuzishda quyidagi ta'sir etuvchi omillar inobatga olinadi (F. I. Isaev, 2021):

xavfni bartaraf etish uchun resurslarning yetariligi: mavjud resurslar bilan bartaraf etib bo'lmaydigan xavflarga kamroq ahamiyat qaratish;

xavfni bartaraf etish sarflanadigan xarajatlar: agar xavfni bartaraf etish uchun ko'proq xarajat sarflansa, unga kamroq e'tibor qaratish.

<sup>1</sup> Manba: Evropa komissiyasi, Soliqlar organlariga soliqlar xavfini kompleks boshqarish bo'yicha qo'llanma, 2010



Ushbu jarayonda ta'sir choralari ko'rilishi lozim deb topilgan xavflar reyestri shakllantiriladi. Bunday tasniflash yengilroq ta'sir chorasini ko'rish mumkin bo'lgan xavflardan tezkor ta'sir mexanizmi qo'llanishi lozim bo'lgan xavflargacha bo'lgan darajalarni o'z ichiga oladi. Soliq xavflarini bartaraf etish yuzasidan choralari ko'rishni xavfning soliq tizimiga salbiy ta'sirini neytrallashtirish jarayoni deb aytish mumkin. Bu bir nechta yo'llar orqali amalga oshiriladi:

xavfni ko'chirish, xavfni boshqa guruhlariga yo'naltirish orqali (misol uchun, jismoniy shaxslarning soliq to'lash majburiyatini yuridik shaxslarga yuklash);

xavflarni kamaytirish, xavflarning takrorlanishlar davomiyligini qisqartirish orqali (misol uchun, soliq summasi kamayishga taqdim etilgan qayta hisobotlarni tekshiruvdan o'tkazib qabul qilinishi bunday hisobotlarni tez-tez taqdim etishni kamaytiradi);

xavfni bartaraf etish, sodir bo'lgan xavfning ta'sirini neytrallashtirish yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavfning oldini olish (Z. N. Kurbanov, Sh. N. G'afurov, 2020).

Ta'sir choralari har doim eng kam xarajatlar bilan ko'proq naf olishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bu shuni anglatadiki, dastlab xavfni ko'chirish qo'llab ko'riladi (eng kam xarajatchilik usuli), agar bu usul naf bermasa, keyin xavflarni kamaytirish usuli qo'llaniladi. Dastlabki 4 ta jarayon tugagandan so'ng barcha bosqichlardagi qadamlar to'g'ri amalga oshirilganligi qayta ko'rib chiqiladi. Ya'ni xavflar to'g'ri aniqlanganmi, baholashda vazn to'g'ri qo'yilganmi, aynan qo'llanilgan ta'sir chorasini kamaytirish imkoniyatini yaratdimi kabi savollarga javob izlanadi. Shunga ko'ra tizimni takomillashtirish ishlari izchillik bilan amalga oshirilib boriladi.

Boshqa mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham soliq xavflarini boshqarish mavzusida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. I. Davronov o'z maqolasida: "Soliq xavflarini kompleks boshqarish — tadbirkorlik subyektlarida mavjud soliq xavflarini mavjud tashqi va ichki manbalar, shuningdek, soliq organlarida mavjud soliq xavflarini aniqlaydigan boshqa dasturiy mahsullar yordamida yagona soliq xavfi sifatida jamlash tizimi hisoblanadi", deb ta'rif bergan (Davronov I. J., 2024).

J. Toshtemirov ham maqolasida "Soliq qarorlarini qabul qilish variantlarini ularning risk tarkibiy qismi bo'yicha baholash uchun tahliliy faoliyatni quyidagi bosqichlar shaklida uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etish kerak", deb hisoblaydi. Shuningdek, u soliq riskini tahlil qilishda uning ikkita tarkibiy qismini ko'rib chiqadi: yuzaga kelish ehtimoli va zararning tabiati. U "Soliq riski paydo bo'lish ehtimoli obyektiv yoki subyektiv usul bilan aniqlanishi mumkin", deb yozgan (Toshtemirov J. M., 2024).


F. Jumaniyozova ham soliq risklarini boshqarishni tadqiq qilgan bo'lib, uning fikricha, "Soliq risklari — bu davlat budjetiga soliq tushumlarining kamayishiga yoki soliq to'lovchilar majburiyatlarining to'liq bajarilmasligiga olib keladigan noaniqlik va xavflardir". U soliq risklarini guruhlariga ajratgan bo'lib, soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar, soliq me'yorlarining murakkabligi yoki noto'g'ri talqin qilinishi tufayli yuzaga keladigan xavflarni huquqiy risklar deb guruhlash maqsadga muvofiq. Moliyaviy risklar esa soliq to'lovchilar faoliyatidagi moliyaviy qiyinchiliklar sababli soliq majburiyatlarining bajarilmasligi tushunilsa, operatsion risklarda soliq idoralari faoliyatidagi samaradorlikning pastligi, texnologik infratuzilmaning rivojlanmaganligi tufayli soliq yig'imlarida yuzaga keladigan xavflar inobatga olinadi. Soliq to'lovchilarning soliq to'lashdan qochishi yoki soliq qonunchiligini buzish holatlari sababli soliq tushumlarining kamayishi to'lov risklari bilan bog'liq omillar natijasida paydo bo'ladigan soliq risklarini yuzaga keltiradi (Djumaniyozova F., 2024).

Yevropa Komissiyasi o'zining CRM qo'llanmasida bir nechta davlatlarda joriy qilingan xavfni boshqarish dasturlari to'g'risida bayon qilib ketgan.

James va Alley soliq to'lovchilarning itoatkorligini yuridik va jismoniy shaxslarning soliq qonunchiligi talablarini qay darajada bajarishi sifatida tavsiflaydi (James, S., & Alley, C., 2002).

Shu bilan birga, McKerchar (2003) soliq to'lovchi to'liq va o'z vaqtida to'lashi lozim bo'lgan soliqlarni hisoblab chiqishi, soliqlarni o'z vaqtida to'lashi hamda normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarini bajarishini soliq qonunchiligiga rioya etish deb baholaydi (McKerchar, 2003) (2-rasm).

OECD (2004) tashkiloti soliq xavfini boshqarishda strategiya bo'lishi lozimligini ta'kidlab, 85 % soliq organlarida rasmiy tasdiqlangan soliq xavfini boshqarish strategiyalari borligini tasdiqlagan. Deyarli dunyodagi barcha soliq organlarida soliq xavfini aniqlashga hamda yuqorilarini tanlab olib ishlashga qaratilgan strategiyalar bor. 30 % soliq organlari soliq xavflarini rasmiy e'lon qiladi. Bu esa soliq to'lovchilarni ushbu xavflardan ogoh bo'lishga hamda ushbu xavf subyektlari bo'lib qolmaslikka undaydi (1-jadval) (CIAT, IOTA, IMF, OECD, International Survey on Revenue Administration, Table B.20 Compliance risk management: Strategy, 2022).



2-rasm. ISO 31000 asosan xavfni boshqarish strukturasi<sup>2</sup>

Soliq qonunchiligiga rioya etish darajasiga ko'pincha soliq organlarining nazoratida bo'lmagan omillar ta'sir ko'rsatadi, ammo ular ixtiyoriy qonunga rioya qilishni qo'llab-quvvatlash va huquqlarni suiiste'mol qilishning oldini olish uchun turli xizmatlarga oid yondashuvlarni qo'llashlari mumkin. Odatda, bu yondashuvlar soliq deklaratsiyasi topshirilishidan oldin amalga oshiriladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi (1-jadval):

1-jadval

Soliq xavfini boshqarish strategiya mavjud soliq ma'muriyatlarining ulushi<sup>3</sup>

Rasmiy tasdiqlangan strategiyaga ega	Agar ha,							
	Strategiya o'ziga xos yondashuvlarni o'z ichiga oladi	Agar ha,					Xavflar rasmiy e'lon qilinadi	Xavflar rasmiy e'lon qilish natija bergan
		Yondashuvlar qamragan yo'nalishlar						
		hisobot	to'lov	Majburiy undiruv	tekshiruv	Xizmat ko'rsatish		
84,5	98,0	89,6	68,8	72,9	100	66,7	29,2	27,1

soliq to'lovchilarni hisobot topshirish va soliqlarni to'lash muddatlari to'g'risida xabardor qilish;  
 soliq to'lovchilarga oldindan to'plangan uchinchi tomon ma'lumotlariga kirishiga ruxsat berish, masalan, oldindan topshirish tizimlari yoki soliq to'lovchi portali orqali bu ma'lumotlarga kirish imkoniyatini yaratish;  
 soliq qonunchiligiga rioya etishni rag'batlantirish uchun maqsadli kampaniyalar o'tkazish hamda o'qitish tashabbuslarini taqdim etish. Bunday tadbirlar jumlasidan soliq to'lovchilar bilan kommunikatsiyani soddalashtirish ham samarali bo'lishi mumkin.

S. Jutyueva, Ye. Zvyagina va O. Davydovalar o'z maqolalarida zamonaviy soliq qonunchiligining doimiy o'zgarib, murakkablashib borishi fonida maxsus turdagi xavflarni keltirib chiqarayotganligi hamda mazkur xavf-xatarlarning oldini olish uchun samarali boshqaruv tizimi zarurligini ta'kidlab o'tganlar (J. S. Aleksandrovna, Ye. M. Zvyagina, O. V. Davydova, 2016).

Agar soliq yuklamasi ancha past bo'lsa yoki ushbu tarmoq uchun o'rtacha statistik ko'rsatkichdan sezilarli darajada farqlansa va soliq idoralari tomonidan potensial soliq buzilishlari haqida boshqa mezonlar mavjud bo'lsa, bu holat soliq tekshiruvini o'tkazish uchun asos bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan soliq xavf-xatarlarining oldini olish bo'yicha profilaktik choralar ahamiyati oshadi, deb hisoblaydilar. Hozirgi sharoitlar

<sup>2</sup> Manba: Technical Management Board Working Group, ISO 31000 standarti, 2018 yil №02 soni.

<sup>3</sup> Manba: CIAT, IOTA, IMF, OECD, International Survey on Revenue Administration (2022)



o'tgan yillardagi soliq to'lovchining mas'uliyatli imidjini shakllantirish tendensiyasiga qarshi chiqib, biznesning barqarorligi va shaffofligini shubha ostiga qo'yadi. Soliq xavf-xatarlarini minimallashtirish — bu qonuniy chegaralarda soliq yuklamasini kamaytirishning samarali usuli hisoblanadi. Boshqa tomondan, soliq xavf-xatarlarini yetarlicha nazorat qilmaslik biznes qiymatining pasayishi, kredit olishda rad etilish, ma'muriy va jinoiy ta'qiblar, hisoblarning muzlatilishi va bankrotlik kabi juda salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Mualliflarning qarashlariga ko'ra, soliq xavflari quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1. geografik jihatdan;
2. demografik jihatdan;
3. soliq to'lovchilarning xulq-avtori jihatidan.

Shuningdek, tadqiqotchilar segmentatsiyaning aniqlik darajasi soliq organlari tomonidan soliq xavfi aniqlangan guruhga nisbatan o'ziga xos kuzatuv usullari, nazorat choralari va mexanizmlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratadi, deb baholashgan (Evaldas Stankevicius, Kristina Kundeliene, 2017).

K. Duncan, U. Krandall va A. Masters tomonidan Xalqaro valyuta jamg'armasi uchun tayyorlangan hisobotda ham soliq organlari soliq qonunchiligiga rioya etish hamda xizmat ko'rsatish nuqtai nazaridan soliq to'lovchilarni darajalarga ajratishda segmentlashdan foydalanishi to'g'risida yozib o'tganlar (Duncan Cleary, William Crandall va Andrew Masters, 2017).

Ular tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda yirik soliq to'lovchilarni aniqlash mezonlariga alohida ahamiyat qaratilgan bo'lib, bunday mezonlar sifatida ishchi soni, aktivlar qiymati, sho'ba korxonalari soni, to'langan soliq turlarining soni, sohasi, yillik realizatsiya summasi keltirib o'tilgan.

Davlat o'zining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlari orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilib, soliqqa tortish bilan bog'liq xatarlarni o'z zimmasiga oladi, shuning uchun maqsadlarga erishishda noaniqlik sifatida soliq risklari nafaqat iqtisodiy subyektlar uchun, balki turli darajadagi boshqaruv subyektlari uchun ham ahamiyatlidir.

Soliq riski mavjud bo'lgan har bir guruh subyektlari uchun moliyaviy va boshqa yo'qotishlar shaklida oqibatlar bor. Bu turli xil maqsadlarga qarab, soliqqa tortish bo'yicha qarorlar qabul qilishga bog'liq bo'ladi.

Yangi soliqlarni joriy etish, soliq yukini oshirish va ko'pincha soliq qonunchiligiga yoki boshqa qoidalarga mayda o'zgarishlar qabul qilish yoki mavjud qonunlarni o'z vaqtida tuzatmaslik davlatga doim soliq tushumlarini yo'qotish xavfini tug'diradi. Ma'lumki, soliq yukining haddan tashqari ko'payishi bilan soliq to'lovchilarning ma'lum bir qismi yashirin iqtisodiyotga o'tadi, boshqalari esa "oydin"da qolib, davlat oldidagi soliq majburiyatlarini minimallashtirish uchun rost yoki tovlamachilik qilishadi. Oqibatda, yangi soliqni joriy etish yoki soliq stavkalarini oshirish yoki soliq imtiyozlarini bekor qilishdan olinadigan daromadlar sezilarli darajada ko'payishi o'rniga, budjetga soliq tushumlari kamayadi.

Xususan, biz davlatning iqtisodiyotga soliq yukini oshirish bo'yicha bo'lgan harakatlari haqida gapiramiz. Soliq qonunchiligining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi natijasida ham soliq risklari yuzaga keladi. Hozirgi bosqichda davlat soliq siyosatining asosiy vazifasi faol moliyaviy-xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdir, soliq to'lovchining ixtiyorida qolgan mablag'lar va soliq hamda budjet mexanizmlari orqali qayta taqsimlanadigan mablag'lar o'rtasidagi maqbul nisbat, ya'ni shaxsiy va jamoat manfaatlarining kombinatsiyasi orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdan iborat.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilishda riskka asoslangan yondashuvlarni keng joriy etish, raqamli soliq nazorati vositalarini rivojlantirish hamda soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida axborot almashinuvini kuchaytirish orqali soliq nazoratining samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi "Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5490-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-3839746>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4415356>

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi 1-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5206072>

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. — Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi, 2020. — 640 b.

Musgrave R. A., Musgrave P. B. Public Finance in Theory and Practice. — New York: McGraw-Hill, 1989.



- Stiglitz J. E. *Economics of the Public Sector*. — New York: W. W. Norton & Company, 2000.
- Samuelson P. A., Nordhaus W. D. *Economics*. — New York: McGraw-Hill Education, 2010.
- Schneider F., Enste D. H. *The Shadow Economy: An International Survey*. — Cambridge: Cambridge University Press, 2002.
- Майбуров И. А. *Налоги и налогообложение: учебник*. — М.: Юрайт, 2020.
- Гончаренко Л. И. *Налоговый контроль: теория и практика*. — М.: Финансы и статистика, 2018.
- Юткина Т. Ф. *Налоги и налогообложение*. — М.: ИНФРА-М, 2019.
- Вахабов А. В. *Солиқлар ва солиққа тортиш*. — Тошкент: Иқтисод-молия, 2019.
- Абдурахмонов Қ. Х. *Давлат молияси ва солиқ сиёсати*. — Тошкент: Fan va texnologiya, 2020.
- Желудкова С. Ю., Оленников С. М. *Квалификация уклонения от уплаты налогов по объективным признакам состава преступления // Петербургский юрист*. — 2017. — № 2. — С. 37–43.
- Маковецкий С. А., Зарецкая Е. А. *Уклонение от уплаты налогов: особенности преступления и наказания // Вестник института экономических исследований*. — 2017. — № 3(7). — С. 156.
- European Commission. *Compliance Risk Management Guide for Tax Administrations*. — Brussels: European Commission, 2010.
- OECD. *Compliance Risk Management: Managing and Improving Tax Compliance*. — Paris: OECD Publishing, 2004.
- OECD. *Tax Administration 2024: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies*. — Paris: OECD Publishing, 2024.
- CIAT, IOTA, IMF, OECD. *International Survey on Revenue Administration, Table B.20: Compliance Risk Management: Strategy, 2022*.
- James S., Alley C. *Tax Compliance, Self-Assessment and Tax Administration // Journal of Finance and Management in Public Services*. — 2002. — Vol. 2(2). — P. 27–42.
- McKerchar M. *The Impact of Complexity Upon Tax Compliance: A Study of Australian Personal Taxpayers*. — Sydney: Australian Tax Research Foundation, 2003.
- Жутяева С. А., Звягина Е. М., Давыдова О. В. *Методы анализа и управления налоговыми рисками // Экономика и управление*. — 2016. — № 12(134). — С. 85–91.
- Calderon R. E. *Benefits and Costs in the Application of a Taxpayer Segmentation Model: The Chilean Experience*. — CIAT General Assembly, 2010.
- Stankevicius E., Kundeliene K. *Theoretical Approach to Taxpayers' Segmentation // Contemporary Issues in Business, Management and Education*. — 2017. — P. 127–135.
- Cleary D., Crandall W., Masters A. *Understanding Revenue Administration: Results from the Second Survey of the Revenue Administration Fiscal Information Tool*. — Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2017.
- Toshtemirov J. M. *Soliq risklarini tahlil qilish uslubiyoti // Лучшие интеллектуальные исследования*. — 2024. — Vol. 16, No. 2. — B. 115–126.
- Davranov I. J. *Tadbirkorlarning barqarorlik reytingini joriy qilish orqali soliq risklarini boshqarish bilan yashirin iqtisodiyotni qisqartirish // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. — 2024. — № 2. — B. 295–306. DOI: 10.55439/EIT/vol12\_iss2/a33.
- Jumaniyazova F. R. *O'zbekistonda soliq risklarini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari va ularni bartaraf qilish chora-tadbirlari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*. — 2024. — Jild 2, № 9. — B. 111–120. DOI: 10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss9-pp111-120.
- Исаев Ф. И. *Солиқларни таҳлика-таҳлил қилиш методикаси // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. — 2021. — № 3, май–июнь. — Б. 367–377.
- Курбанов З. Н., Фаффоров Ш. Н. *Солиқ назоратини ташкил қилишнинг назарий масалалари // Логистика ва иқтисодиёт*. — 2020. — № 2. — Б. 71.
- ISO 31000. *Risk Management — Guidelines*. — Geneva: International Organization for Standardization, 2018.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/1**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>